

Eshboyev Samandar Xayrilla o'g'li

TDTTrU "AYM" fakulteti YMSH-4 guruh talabasi.

samandareahboyev00@gmail.com +998971115760

Annotatsiya: "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir". Ushbu maqola buyuk drammaturg adabiyotshunos olim Maqsud Shayxzodaning bolalik hayotidan so'zlaydi.

Kalit so'zlar: Ustoz, Boku, shoir, muallimlik, Ozarbayjon, dastlabki she'rlar

Ba'zan odamlar orasida ustozim bitta degan gapni eshitib qolaman. Ustozim bitta deyish men uchun biroz g'alati tuyuladigan bo'lgan. Aytmoqchimanki, insonning ustozlari ko'p bo'lishi kerak. Ilm yoki kasb egallashda yoki hayotiy tajribalarni o'zlashtirishda ustozlaringiz ko'p bo'lgani ma'qul. Ustozlar maqsadga eltuvchi yo'lni yaqinlashtiradi. Ularning ilmi, o'g'itlari, tajribalari bilan bu yo'l siz uchun kamolot yo'liga aylana boradi. Ana shu ustozlar orasida ilk ustozingiz bu- sizning ota-onangizdir.

Maqsud Shayxzodaning ilk ustozlari - shoirning ota-onasi Ma'sumbek va Fotimaxonimlar edi.

Adabiyotshunos To'xtasin Jalolov Shayxzoda bilan qilgan suhbatlari asosida yozgan «Yashasin tabassum» sarlavhali maqolasida shoirning otasi haqida quyidagi ma'lumotni yozib qoldirgan: «Ma'sumbekning uyi o'sha zamonda Oqtosh shahrining madaniy, adabiy markazi bo'lib, shaharning eng ilg'or ziyolilari uning uyiga yig'ilib, san'at, adabiyot, siyosat va falsafadan munozara va mubohasa qilishardi. Binobarin, bu adabiy muhit uchun Pushkin va Lermontov, Shekspir va Balzak, Firdavsiy va Hayyom, Nizomiy va Navoiy asarlari begona emas edi. Bo'lajak shoir – yosh Maqsud bu adabiy munozaralardan ko'p bahra topib, shoh asarlarning jozibali ohangi va sehri ostida yashadi.»

Shoirning onasi Fotimaxonim ham zamonaviy ilm-fan asoslarini egallagan, Ozarbayjon xotin-qizlarining peshqadam vakilasi edi. Fotimaxonimda til o'rganish qobiliyati kuchli bo'lib, u ona tilidan tashqari, rus, gruzin va turk tillarini ham yaxshi bilgan. Toshkentga – to'ng'ich farzandi huzuriga borib-kelib yurgan paytlarida esa o'zbek tilini ham o'rgangan.

Ma'sumbek va Fotimaxonimdan besh farzand tug'ildi. Bular - Maqsud, Safura, Fuod, Nozim va Saidalar. Shayxzoda o'z tarjimai holidan eski hisob bilan 1908- yil 25-oktyabr, ya'ni 7- noyabr kuni Gruziya poytaxtida tug'ilganligini, ko'p o'tmay ular Oqtosh shahriga ko'chib kelganligini, 1917- yilda, u yerdagi boshlang'ich maktabga o'qishga borganligini qayd qilgan.

Shoirning Bokudagi hujjatlari orasida shu davrga oid daftarlari ham mavjud bo'lib, ularning birida bunday so'zlarni o'qiymiz: «Ikkinchidan uchinchiga o'tarkan,

olgan baholarim: ulumi din – besh, ozarbayjoncha– besh, ruscha – besh, hisob – besh, handasa – besh, tabiat tarixi – besh, tarix – besh, jo‘g‘rofiya – besh, husnixat – besh, rasm – besh, mumtoz qo‘shiq – besh, gimnastika – besh, husni axloq – besh..»

Maqsud boshlang‘ich maktabni «besh» baholar bilan yakunlabgina qolmay, shu yillarda she‘rlar ham yoza boshlagan. Quyidagi to‘rt satrli she‘r ham o‘sha yillarda bitilgan:

Arslonlardan arslon tarqar,
O‘z zoting-la bir bo‘lgin...
Ulg‘ay, qo‘zim, unutmaki,
Sher bolasi sher bo‘lgin.

«...Men agar kitobxonlarimga, hali alifboni egallamasdan oldin she‘r yaratganman, deb aytsam, ular balki mening bu gapimni yo hazil, yoki kinoyaviy ma‘noda bir mubolag‘adur, deb talqin qilishlari mumkin. Ammo bu chin gap. Mening otam rahmatlik odatda bolalarga she‘r o‘qib berar va keyin ayrim so‘zlarni aytib berib, shu so‘zga mos qofiya topishni bizlardan talab qilar edi. Qofiya ham vazn ohangiga qulog‘im o‘rganib ketib, men besh yasharligimda 8 - 10 misradan iborat bir masal to‘qiganim esimda. Albatta, muayyan fikr va syujetdan xoli bo‘lgan bu «masal» bo‘ri bilan olmaxon haqida to‘qilgan edi. Har qalay, she‘rga muhabbat umrimning ilk yillaridan boshlab qonimga, qalbiga, fikrimga singib ketganini jur‘at bilan ayta olaman,»- deb xotirlagan edi Maqsud Shayxzoda.

Ijodkor uchun uning birinchi ustoz, birinchi nashri keyinchalik parvozi uchun qanot bo‘ladi. Maqsud Shayxzodaning nashr etilgan birinchi she‘ri parvozi uchun qanot bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas.

1920- yilning so‘nggi kunlari edi... Oqtoshga taniqli inqilobchi Narimon Narimonov keladi. Taniqli davlat arbobining nutqidan keyin so‘z Maqsudga beriladi. U «qo‘lbola» sahnaga ko‘tarilib, muallimlarining «buyurtma»si bilan yozilgan «Girmizi askar nag‘masi» («Qizil askar qo‘shig‘i») degan she‘rini bolalarga xos ko‘tarinki ruh bilan o‘qiydi.

Qizil o‘rdu nomimiz,
Yigitdir unvonimiz.
Mazlumlar ko‘p jang qilgan,
Halol bo‘lsin qonimiz.
Bayrog‘imiz, shonimiz,
Usmonli unvonimiz.
Vatan - bizning jonimiz,

Halol bo‘lsin qonimiz.

Narimon Narimonov havaskor shoirning oldiga kelib, uni quchoqlab o‘pdi. So‘ng u yozgan she‘rni olib ketib, Bokuda nashr etilgan «Kommunist» gazetasining 1921- yil 12-

dekabr sonida chop ettirdi. Bu, Shayxzodaning matbuotda e’lon qilingan ilk she’ri bo’lib, u shu vaqtda endigina 13 yoshga to’lgan edi.

1921- yilning oxirlarida Maqsud bir guruh tengdoshlari bilan Bokuga yo’l oladi. Yagona pedagogika bilim yurti – dorilmuallimiga o’qishga kiradi.

1925-1926- o’quv yilida mazkur bilim yurtini a’lo baholar bilan tugatgan Maqsud Ozarbayjon Maorif xalq komissarligining yo’llanmasi bilan Dog’istondagi Darband shahriga yo’l oladi. Bu paytda Maqsud Shayxzoda 18 yoshda edi.

U yerda muallimlik faoliyati bilangina shug’ullanib qolmay, Bo’ynoqda nashr qilingan «Maorif yo’li», Bokuda chiqarilgan «Kommunist» gazetalari bilan aloqa o’rnatib, shu nashrlarga xabar, she’r va maqolalar yuborib turadi. Keyinchalik Bo’ynoq shahridagi ta’lim va tarbiya texnikumida jamiyatshunoslik fanidan dars berdi. Ayni paytda, talabalar uchun drama to’garagini tashkil etib, hatto to’garak tomonidan sahnalashtirilgan spektakllarga Bo’ynoqda joylashgan harbiy garnizon askarlarini ham taklif etgan. Shu yillarda Shayxzoda, do’stlari bilan hurfikrliligi, Ozarbayjonni ozod qilish yo’lidagi harakatlari uchun «ijtimoiy xavfli unsurlar» deb ayblangan. OGPU kollegiyasi huzuridagi Maxsus kengash bo’ynoqlik muallimlar ishini qayta ko’rib, ba’zilarini 3 yillik qamoqqa, Shayxzodani esa 3 yillik surgunga yuborish haqida hukm chiqaradi. Mazkur hukmga ko’ra, Shayxzoda Moskva, Leningrad, Tiflis va Bokudan boshqa shaharlarda surgun muddatini o’tashi mumkin edi. Shayxzoda Maxachqal’adagi 9 oylik qamoqdan ozod etilgach, onasining maslahati bilan (otasi o’sha vaqtda Moskvada o’qishda bo’lgan) surgungoh sifatida Toshkentni tanlaydi va 1928- yil fevral oyining so’nggi kunlarida surgun muddatini o’tash uchun o’zbek yurtiga keladi.

Maqsud Shayxzodaning ism-sharifi Toshkentga ko’chib kelguniga qadar Maqsud Sheyxiev bo’lgan. Bu vaqtda Maqsud Shayxzoda 20 yoshda edi.

Adibning bundan keying hayoti yana bir katta hikoya va bu hikoya voqeiliklari Toshkenda kechadi. Xulosa o’rnida shuni aytib o’tish lozimki adib hayoti va hayot yo’li davomiy qiyinchiliklar va va notekisliklardan iborat bo’lgan, shunday vaziyatda ham Shayxzoda o’ziga va hayotga bo’lgan umidini bir daqiqaga bo’lsada so’ndirgani yo’q. Men adib hayotini o’rganish davomida bir hulosaga keldim **“Hayot qiyinchiliklardan va past balandliklardan iborat, qaconki inson o’sha oldida turgan qiyinchiliklarni va past balandliklarni sabot bilan yengib o’tar ekan faqat shundagina o’z ko’zlagan maqsadiga va ko’zlagan marrasiga erishadi”**.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Naim Karimov “Maqsud Shayxzoda” ma’rifiy-biografik roman. – T.: “Sharq”, 2009-y
2. www.ziyouz.com